



PROJECTS IN CORRESPONDENCE LEARNING

Axat Raxmatovich Azamatov

Alfraganus University, Department of Mathematics and Physics

PhD in Physics and Mathematics, Associate Professor (Acting)

ORCID 0009-0007-0518-2447

Abstract:

There is much discussion about the imperfection of the distance education system and the shallowness of students' knowledge. However, research on eliminating the shortcomings and improving this system remains insufficient. This article proposes the "Himoya" project, which recommends organizing blended learning in both real and virtual educational environments based on digitalization technologies. The project explores ways to enhance the distance education system by fully utilizing digitalization opportunities and provides relative recommendations.

Keywords: Digital technologies, educational activities, distance education, higher education, students, challenges, opportunities, Himoya project, knowledge monitoring.

Introduction

SIRTQI TA'LIM SHAKLIDA TA'LIM LOYIHALARI HAQIDA

Azamatov Axat Raxmatovich

Alfraganus University, "Matematika va fizika" kafedrası

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent v.b.

ORCID 0009-0007-0518-2447

Annotatsiya:

Sirtqi ta'lim shaklining mukammal emasligi va talabalar bilimining sayoz bo'lib qolayotgani haqida juda ko'p so'z boradi. Bu ta'lim tizimini kamchiliklarini bartaraf etish va mukammallashtirish yo'lida izlanishlar yetarli emas. Maqolada ushbu ta'lim tizimida raqamlashtirish texnologiyasi asosida aralash ta'limni real va virtual ta'lim muhitida tashkil etishning "Himoya" nomli loyiha tavsiya etiladi. Loyihada raqamlashtirish imkoniyatlaridan to'liqroq foydalangan holda sirtqi

ta'lim tizimini mukammallashtirish haqida mulohazalar yuritiladi va nisbiy tavsiyalar ifodalanadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim faoliyati, sirtqi ta'lim, oliy ta'lim, talabalar, muammolar, imkoniyatlar, himoya loyihasi, bilimlar monitoringi.

KIRISH

Ma'lumki, sirtqi ta'lim qaysidir sohada faoliyat yuritayotgan va oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar uchun zarurligini hisobga olib sirtqi ta'lim tizimida bilim olayotgan talabalarga kunduzgi ta'lim tizimida bilim olayotgan talabalardagidan kam bo'lmagan bilim olish imkoniyatini shakllantirish yo'llarini izlash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunda turli ta'lim platformalari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Normativ hujjatlarda sirtqi ta'lim tizimining tashkil etish shakli va harakatlanish yo'li to'liq va rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lgan holda aks ettirilgan. Hozirgi kunda sirtqi ta'lim shaklida talabalar oliy ta'lim muassasasida yiliga ikki marta qisqa muddatli maslahat darslarida tahsil olishadi va yakuniy imtihon topshirishadi. Albatta, imtihonda insonning ta'sir omilini deyarli yo'qotish uchun axborot texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilinadi, bu esa yakuniy imtihonni test ko'rinishida tashkil etishga olib keladi. Sir emaski, test tizimi ham kamchiliklardan holi emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda qo'llanayotgan raqamli ta'limni bir nechta tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin: raqamli shaklda taqdim etilgan o'quv materiallari; raqamli vositalar va xizmatlar; onlayn ta'limni uslubiy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash; yo'naltirilgan diagnostika uchun ma'lumotlar banklari kabi. Shu bilan birga raqamli ta'limning imkoniyatlari juda ham mukammalashib va rivojlanib bormoqda hamda ta'lim tizimida samarali foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlarni ochib bermoqda. Agar shu imkoniyatlardan to'laonli va samarali foydalanilsa, u holda sirtqi ta'lim tizimi talabalari ham mukammalshib kunduzgi ta'lim tizimi talabalari bilan bilim jihatidan raqobatlasha oladi.

Insoniyat tarixida katta muammolarni yuzaga keltirgan pandemiya davrida ta'lim faoliyatining quyidagi shakllari zarurligi sezilib qoldi:

- asinxron onlayn format (talabalar turli ta'lim platformalarida joylashtirilgan materiallarni, resurslarni o'qituvchi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq talabalar uchun qulay vaqtda o'rganishi yoki o'qituvchi bilan muloqot qilishi mumkin);
- sinxron onlayn format (Zoom kabi videokonferensaloqa platformalaridan foydalangan holda vebinar yoki videokonferensiya formatida olib boriladi);
- aralash onlayn format (pedagogik vazifalarga qarab sinxron va asinxron onlayn formatlarni birlashtirish);
- oflayn o'qitish formati (talaba va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita aloqa orqali o'rganish);
- aralash ta'lim onlayn va oflayn formatlarning gibridi sifatida.

Yuqoridagi tajribani e'tiborga olib raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalangan holda real va virtual ta'lim shakllarini uyg'un ravishda birlashtirib sirtqi ta'lim modeli sifatida taqdim etilishi mumkin.

Umuman olganda normativ hujjatlarda aks etgan va quyida qisman keltirilgan mazmuni orqali "Himoya" loyihasini taklif etamiz:

- Normativ hujjatda surtqi va kunduzgi ta'lim talabalariga beriladigan bilimlar hajmi tengligi ta'kidlangan. Demak, bilimlar hajmi surtqi va kunduzgi ta'lim uchun bir xil taqsimlangan va shuning asosida talabalar tomonidan bilim hamda ko'nikmalarni egallanishi talab etiladi;
- "Sirtqi ta'lim talabasi uchun o'qishga qabul qilingan o'quv yili boshida) bevosita oliy ta'lim muassasasida 10 kunlik o'quv jarayoni bilan dastlabki tanishtiruv hamda semestr davomida o'qitiladigan fanlar bo'yicha qisqacha (ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi. Talabalarga mavzular bo'yicha topshiriqlar va ularni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar beriladi". Bu qismda sirtqi ta'lim talabalariga beriladigan vazifalar aytib o'tilgan, lekin ularning kunduzgi ta'lim talabalariga beriladigan vazifalaridan kam bo'lishi kerakligi haqida aytilmagan. Demak, bu jarayondagi oliy ta'lim muassasasi tshkil etgan virtual ta'lim muhitida ishchi o'quv rejasi, undagi mavzularga mos resurslar, eng asosiysi, mavzularga mos talaba bajarishi uchun vazifalar, vazifalarning "virtual" topshirish muddati aks etishi zarur - ta'limni tashkil etishning birinchi bosqichi shundan iborat

- “O‘quv sessiyasigacha bo‘lgan muddatda sirtqi ta‘limda o‘qish mustaqil, jumladan, masofadan turib ta‘lim olish shaklida amalga oshiriladi. Bunda talaba metodik ko‘rsatmalardan foydalangan holda ishchi o‘quv rejada semestr uchun rejalashtirilgan fanlarning dasturlarida belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtiradi”. Bu ikkinchi bosqichni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: talabalar belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtirishi, topshiriqlarni bajarish vaqtida kelib chiqqan savollarni fan ustozining kurs uchun mo‘ljallangan pochta manziliga yuborishi va hech bo‘lmaganda oyda bir marta fan ustozini tayyorlagan javoblarni oliy ta‘lim muassasasining videokonferensaloqa platformasida tahlil etadi. Albatta, buning uchun oliy ta‘lim muassasasi professor-o‘qituvchini bajaradigan o‘quv yuklamasida bu vazifalar uchun qo‘shimcha soat berishni ko‘zda tutgan bo‘lishi shart.
- “Talaba fan bo‘yicha topshiriqlarni bajargandan so‘ng, uni fan o‘qituvchisiga belgilangan muddatlarda (odatda, masofadan turib Internet orqali) yuboradi hamda qayddan o‘tkazadi. Fan o‘qituvchisi talaba yuborgan materiallarni tekshirib, oraliq ishi sifatida baholaydi. Fan o‘qituvchisi mavzular bo‘yicha navbatdagi topshiriqlar va ko‘rsatmalarni yuborishi, shuningdek, onlayn rejimida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi mumkin”. Bu qismni avvalgi bosqichga qo‘shilgan. Shuning uchun bu qism bilan mutanosib uchunchi bosqichni izohlaymiz. Uchinchi bosqichda oraliq nazorat vazifalari tugagach talabaga yakuniy nazorat o‘rniga himoya ishi uchun vazifa beriladi. Himoya ishi talaba o‘zlashtirishi shart bo‘lgan bilimlar bilan birga egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan loyihadir. Loyiha (talaba yo‘nalishida bo‘lishi maqsadga muvofiq) shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, uni bajarish vaqtida talaba fan mavzularidan foydalanishga “majbur” bo‘lishi kerak. Ya‘ni, loyiha qismlari talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan mavzularni o‘z ichiga olishi shart. Loyiha ishida topshiriq mazmuni va bajarish jarayonlari qadamlari aks etgan bo‘ladi. Loyihani bajarish jarayonida kelib chiqqan savollarni talaba fan ustozining kurs uchun mo‘ljallangan pochta manziliga yuborishi va hech bo‘lmaganda oyda ikki marta fan ustozini bilan videokonferensaloqa platformasida tahlil etadi. Oliy ta‘lim muassasasi bu vazifa uchun ham professor-o‘qituvchini bajaradigan o‘quv yuklamasida qo‘shimcha soat berishni ko‘zda tutgan bo‘lishi shart.
- “Sirtqi ta‘lim talabasi har bir semestr davomida bir marta oliy ta‘lim muassasasiga o‘quv sessiyasiga chaqiriladi. O‘quv sessiyasi davomida:

o talaba semestr uchun berilgan topshiriqlarni himoya qiladi. Fan bo'yicha barcha topshiriqlar ijobiy baholangan taqdirda talabaga fan bo'yicha yakuniy baholashga kirish huquqi beriladi;

o fanlar bo'yicha yakuniy baholashlar o'tkaziladi"

Mana shu qismda o'tkaziladigan baholash monitoringi juda muhimdir. Bu qism loyihaning to'rtinchi bosqichi bo'lib, unda talaba bajargan loyihasini kafedra professor-o'qituvchilari oldida offlayn himoya qiladi. Talabaning himoyada olgan bahosi yakuniy baho sifatida qabul qilinadi.

Hech kimga sir emaski, bugungi talabalar bosma adabiyotlardan ma'lumot qidirishni tobora unutib va yoqtirmay qo'yishmoqda, chunki bu qidiruv tizimiga shunchaki so'rovlarni kiritish va batafsil javoblarni olishdan ko'ra anchayin ko'p vaqt hamda mehnat talab qiladi. Lekin qidiruv tizimidan olingan javoblar har doim ham yetarli ishonchlilikka ega emas, masalan, birinchi bo'lib aks etadigan Vikipediyaning mazmuni foydalanuvchilar tomonidan mavzu haqidagi o'z dunyoqartash va fikrlariga asosan hosil qilingan bo'ladi. Bunday sharoitda insonlar, bizning holda esa talaba, jiddiy o'quv va ilmiy faoliyatda juda zarur bo'lgan ma'lumotni sistemali, mantiqiy va mashaqqatli mehnat yordamida izlash ko'nikmalarini yo'qotadi. Oxir oqibat, bu kabilar fikrlash va tahlil qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli talabalar bilimni sinashda qolipga aylanib qolgan bilimlarni onlayn baholash yoki test sistemasida imtihon olishdan ko'ra kreativ fikrlashga "majbur" etadigan va ijodiy yondashishga yo'naltiruvchi loyihalarni bajarish talabalar bilimni mukammal bo'lishida ijobiy natijalarga olib keladi.

XULOSA

Hozirgi kunda ta'lim tizimining holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Ta'limni raqamlashtirish asosida kreativ usullarni qo'llash orqali talabalarning ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bilimni mukammal bo'lishiga, ish sohasida raqobatbardosh bo'lishiga erishish mumkin.



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.A. Xolmirzayev. Aralash ta’lim usulining sirtqi ta’limdagi o‘rni. Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar. Farg‘ona TATU filiali, xalqaro konferensiya, 4-5 oktyabr 2024 yil, III qism, 357-360.
2. A.R. Azamatov, M.A. Xolmirzayev. Bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni. “Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi”, Volume 4,| CSPU Conference 1, 2023
3. A.R. Azamatov. Raqamli texnologiyalar rivoji va muammolar. Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar. Farg‘ona TATU filiali, xalqaro konferensiya, 4-5 oktyabr 2024 yil, III qism, 326-329.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.11.2017 yildagi 930-son. “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida.”
5. N.D. Mirzahmedova. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. May, 2022, Volume 2, Issue 5/2, 538-545.